O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
KATTAQO‘RG‘ON FILIALI

Ro‘yxatga olindi:
№_____
2022 yil “__”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDUKF direktori
_____ Sh.R.Urakov
“__”_____2022 yil

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	230000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tilli

Kattaqo‘rg‘on – 2024

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi PDP1304 PDP1404	O‘quv yili 2023-2024	Semestr 6/7	ECTS – Kreditlar 3/3
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Pedagogika va psixologiya	46	44	90

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad:

talabalarda umumiy psixologik va pedagogik bilimlarni shakllantirish, voqelik va jamiyatdagi voqea-hodisalarning, shaxsning o‘zida kechadigan jarayonlar va psixologik bilimlarni shakllantirish, ularni jamiyat hayotida umumiy psixologik hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning kamoloti va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emosional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o‘rgatish, barkamol shaxsni shakllantirish muammolarini hal qilish, pedagogik faoliyat mazmuni orqali talabalarda pedagogik tafakkur, ijodiy fikrlash, pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga erishish, ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda pedagogik meros g‘oyalarini, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini amaliyotga maqsadli tadbiq etish malakasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifalari:

Umumiy psixologiya va pedagogika fanini o‘qitish vazifalari quyidagilarni hal etishga qaratilgan:

✓ inson ruhiyatini psixologik tahlil etish;

✓ umumiy psixologiya fanining jamiyat va shaxs kamolotidagi o‘rnini talabalarga tushuntirish;

✓ voqea va hodisalarni psixologik nuktai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etish;

✓ inson psixologiyasini umumiy ilmiy asoslarini o‘rgatishni;

✓ jamiyat va shaxs orasidagi munosabatning psixologik qonuniyatlari asosida rivojlantirishni;

✓ umumiy psixologiya fani bo‘limlari bo‘yicha (psixikaning evolyusion taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi, ichki regulyasiya, sezgi va idrok, diqqat va xotira, tafakkur va nutq) psixologik bilimlarni tahlil etish, ularning qonuniyatlarini mashg‘ulot jarayonida talqil qilish.

✓ talabalarda didaktika, tarbiya nazariyasi, ta’lim tizimini boshqarish, pedagogik firklaming tarixiyligi va pedagogik mahoratning mohiyati yuzasidan nazariy bilimlarni hosil qilish;

✓ umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e’tiborga olib,

ta’lim-tarbiya mazmuni, milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatini yaratish;

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-BO‘LIM. PSIXOLOGIYA

1-mavzu: Psixologiya fanining predmeti. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tadqiqot metodlari

Psixologiya fanining predmeti, vazifalari. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida. Psixologik bilimlarning o‘ziga xos tomonlari. Psixologiya fanining predmeti haqidagi tasavvurlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Psixika haqida tushuncha, psixikaning oriyentirovka qiluvchanlik va boshqaruvchanlik vazifasi. Psixik aks ettirish - ob’ektiv olamning sub’ektiv obrazi ekanligi. Bosh miya va psixika. Odam psixikasining paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti.

Psixikaning filogenetik taraqqiyoti, seskanuvchanlik va sezuvchanlik, tropizmlarning mohiyati, instinkt tushunchasining mazmuni, ko‘nikma va malakalar, hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, psixikaning muhit va a`zolar tuzilishiga bog`liqligi.

Psixika va ong munosabati. Ongning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib yetmagan harakatlar) holatlari. Odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari. Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi. Aniq faoliyatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari, rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari, shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganuvchi psixologiya sohalari. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari va ularning tahlili, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so‘rovnoma metodi, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.

2-mavzu: Shaxs, faoliyat va motivatsiya

Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchasining mazmuni. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi. Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, konstitutsion nazariya, rollar nazariyasi mazmuni. Endopsxika va ekzopsxika haqida tushuncha. Dunyoqarash va e’tiqod.

Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili. Faoliyatning tuzilishi, faoliyatning o‘ziga xosligi, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi. Faoliyatning o‘zlashtirilishi va malakalarni egallash. Faoliyatning asosiy turlari, oyin, talim va mehnat faoliyati mazmuni. A.N.Leontev boyicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar. Motivatsiya va

CamScanner yordamida skanerlangan

emotsiya tushunchasining mazmuni, motivatsiya sohalari, Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari, motiv muammosiga doir mulohazalar. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning ahamiyati.

Muloqot va nutq haqida tushuncha, muloqot turlari. Muloqotning inson psixik rivojlanishidagi ahamiyati. Muloqot va uning ko'p maqomli xarakteri. Muloqot vazifalari. Muloqotning verbal va noverbal vositalari, muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir etish sifatida, muloqot insonlarning bir-birini tushunishi, muloqot texnikasi va usullari.

3-mavzu: Shaxsning hissiy-emotsional sohasi.

Emotsiya va hissiyot haqida tushuncha. His-tuyg`ularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi. hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Hissiy ton, affekt, stress, praksik hislar, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Hissiyotning o'ziga xosligi. Hissiyotni boshqarish.

Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi. Irodaviy harakatlar va uni boshqarish. Shaxsning irodaviy sifatlari. Irodaning individual xususiyatlari. Irodani tarbiyalash.

4-mavzu: Shaxsning bilish jarayonlar psixologiyasi.

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat. Diqqatning xususiyatlari, diqqat kuchi va bo'linishi, diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishi.

Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, ekstroretseptiv sezgilar, introretseptiv sezgilar, proprioretseptiv sezgilar, analizator va uning tuzilishi, sezgi sohasidagi qonuniyatlar. Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari, idrokda ob'ekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Idrokda illyuziya va gallyutsinatsiya. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish.

Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga ko'ra xotira turlari, maqsadiga ko'ra xotira turlari, muddatiga ko'ra xotira turlari. Xotira jarayonlari, esda olib qolish, esga tushirish, esda saqlash, unutish. Xotira tiplari.

Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi, tafakkurning chuqurligi, tafakkurning kengligi, tafakkurning mustaqilligi, tafakkurning ixchamligi, tafakkurning tezligi, tafakkurning turlari. Shakliga ko'ra tafakkur turlari, topshiriq xarakteriga ko'ra tafakkur turlari, fikr yoyiqligiga ko'ra tafakkur turlari, fikrning originallik darajasiga ko'ra tafakkur turlari. Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar.

5-mavzu: Shaxsning individual-tipologik xususiyatlari

Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tarixi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari. Faoliyatning individual uslubi va temperament.

Xarakter haqida tushuncha, xarakter tuzilishi va xususiyatlari.xarakter tipologiyasi, xarakterning shakllanishi, xarakterning ifodali belgilari hakida tushuncha va ilmiy tasavvurlar hosil qilish. Xarakter shakllanishi. Xarakter aksentuasiyasi. Jinsiy dimorfizm va individning psixologik tavsifi

Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo'lishi va tuzilishi. Qobiliyat va talantlarning tabiiy shartlari. Qobiliyat borasidagi nazariyalar. Qobiliyatlarning rivojlanishi.

6-mavzu: Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar). Yosh davrlarining yetakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.

O'smirlik davri inson taraqqiyotidagi tub burilish davri sifatida. O'smirlik davridagi asosiy fiziologik va neyrogumoral o'zgarishlar. O'g'il va qiz bolalarda o'smirlik davrida jismoniy rivojlanishdagi farqlar. Akselerasiya va uning o'ziga xosligi. O'smirlik davrida kuzatiladigan asosiy psixologik o''zgarishlar.

7-mavzu: Ta'lim va tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi

Ta'limning psixologik mazmuni. Ta'lim va aqliy taraqqiyot. O'qish faoliyati va uning turlari. Ta'lim va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari. Ta'limni boshqarishning metodlari. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirish nazariyasi va uning mohiyati. Muammoli ta'lim va muammoli vaziyat. Ta'lim texnologiyalarining psixologik xususiyatlari.

Shaxsni tarbiyalash metodlari va shakllari, Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati. Tarbiya metodlari va turlari. Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari. Tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o quvchilar bilan ishlash metodlari. Ilmiy dunyoqarash va barqaror e'tiqodni shakllantirish metodlari. Ideal. Jinsiy tarbiyalash. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri. O'z-o'zini tarbiyalashning metod va shakllari. Tarbiyaning psixologik mexanizmlari.

Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va uning vazifalari. O'qituvchiga shaxsiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari. O'qituvchi o'quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'qituvchining o'z malakasini oshirib borishning psixologik muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatlari.

CamScanner yordamida skanerlangan

2-BO'LIM. PEDAGOGIKA

1-mavzu: O'zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risda"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati mazmuni asosiy tamoyillari. Ta'lim tizimi va turlari.

2-mavzu: Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to`g`risidagi fan. Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. "Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlansihining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari

3-mavzu: Didaktika-pedagogik ta'lim nazariyasi. O`qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim nazariyasi (didaktika)-pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

**4-mavzu: Ta'lim mazmuni. Ta`lim metodlari va vositalari.** Ilmiy-texnik jarayon va ta`lim mazmuni. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Davlat ta'lim standarti. "Ta'lim metodlari" va "usullari" tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta`lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funksiyalari.

5-mavzu: Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakarini tashhis etish. Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzulishi. Nostandart darslar. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Ta'lim olganlikni tashhis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashhis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari , shakllari va metodlari.

6-mavzu: Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'yekti sifatida. "Tarbiya" tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya vositalari. Jamoa tushunchasi. O'quvchilar jamoasini shakllasntirishning mohiyati va tashkiliy saoslari. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari.O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

7-mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya turlari (aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, estetik, jismoniy,fuqarolik). Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya turlarining umumiy tavsifi (aqliy,ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, estetik, jismoniy,fuqarolik). "Ilmiy dunyoqarash" tushunchasining mohiyati. Aqliy tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va mazmuni. Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shakllari, metod va vositalari. O'quvchilarning aqliy tarbiyalanganlik darajasini baholash.

"Axloq" tushunchasining mohiyati. Axloq-ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish, tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining shaxs ma'naviy sifatlari to'g'risidagi g'oyalari.

8-mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya turlari (aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, estetik, jismoniy,fuqarolik). Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya turlarining umumiy tavsifi (aqliy,ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, estetik, jismoniy,fuqarolik). "Ilmiy dunyoqarash" tushunchasining mohiyati. Aqliy tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va mazmuni. Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shakllari, metod va vositalari. O'quvchilarning aqliy tarbiyalanganlik darajasini baholash.

"Axloq" tushunchasining mohiyati. Axloq-ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish, tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining shaxs ma'naviy sifatlari to'g'risidagi g'oyalari.

9-mavzu: Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan XVII asrning birinchi yarmigacha Markaziy Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti. "Pedagogika tarixi" fanining maqsadi va vazifalari. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Qur`oni Karim-axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar) . Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji.IX-XII asrlar Sharq uyg'onish davri. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmigacha Markaziy Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti

10-mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktablar tizimi va pedagogik fikrlar. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji

Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Turkistonda jadidchilik harakati.Yangi usul maktablarining ochilishi.Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"-Respublikamiz ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari.

11-mavzu: Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta`lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya.

XII asrda rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiy, Adolf Disterverg va Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

XIX asrning oxiri – XX asrda G'arbiy Yevropa, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari. L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida

Jqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Ta'lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari

12-mavzu: edagogik mahoratning asosiy komponentlari. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagogik qobiliyat. O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyat. Pedagogik muloqot. Muloqot-pedagogik hamkorlik vositasi sifatida. Muloqotning mohiyati va tuzilishi. Muloqot vositalari va turlari. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar. Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi. Pedagogik faoliyatdagi ijodiyot va innovatsiya. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi. Pedagogik texnika va o'qituvchi mahoratini takomillashtirish yo'llari. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. O'qituvchining o'z ruhiy holatini boshqara olish texnikasi.. O'qituvchining tashqi qiyofasi va unga qo'yiladigan talablar.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar guruhlarda ishlash, mustaqil fikrni bayon etish, guruh taqdimotini amalga oshirishni o'rganadilar.

Amaliy mashgulotlarning tavsiya etiladigan taxminiy mavzulari va ularning mazmuni:

I bo'lim. Psixologiya

1. Psixologiya fanining predmeti. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tadqiqot metodlari.
2. Shaxs, faoliyat va motivatsiya.
3. Shaxs va muloqot
4. Shaxsning hissiy-emotsional sohasi.
5. Shaxsning bilish jarayonlar psixologiyasi.
6. Shaxsning individual-tipologik xususiyatlari.
7. Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi.
8. O'smirlik davrida psixik rivojlanish
9. Ta'lim va tarbiya psixologiyasi.
10. O'qituvchi psixologiyasi.

II bo'lim. Pedagogika

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni mazmunini o'rganish. Ta'lim tizimi turlari va ularni mazmuni bilan tanishish.
2. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish.Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
3. Didaktika-pedagogik ta'lim nazariyasini o'rganish. O'qitish jarayonini o'ragnish, tahlil qilish.
4. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi hujjatlar (DTS,o'quv reja, o'quv dastur, darsliklar) mazmuni bilan tanishish. Ta'lim metodlari turlari va ta'lim vositalarining turlari o'rganish.
5. a'limni tashkil etish shakllari va turlari ularning bir-biridan farqli jihatlarini o'rganish. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etish mazmuni bilan tanishish.
6. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni o'rganish. Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'sirini o'rganish. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya turlarini o'rganish.
7. Ta'lim muasasasasi menejmenti.Korreksion (maxsus) pedagogika asoslarini o'rganish
8. Pedagogika tarixi fan sifatida. Eng qadimgi davrlardan XVII asrning birinchi yarmigacha Markaziy Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktablar tizimi va pedagogik fikrlar. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji

CamScanner yordamida skanerlangan

9. XIX asming ikkinchi yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta`lim tizimi
10. O`qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.Pedagogik mahoratning asosiy komponentlarini o'rganish.
11. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasini o'rganish.Pedagogik faoliyatdagi ijodiyot va innovatsiya.

IV. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

- ✓ darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- ✓ tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- ✓ maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- ✓ talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- ✓ faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- ✓ nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish;
- ✓ badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni psixologik tomondan kuzatib borish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning taxminiy mavzulari:

I bo'lim. Psixologiya

1. Psixologiya fanining predmeti
2. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari.
3. Psixikaning evolyusiyasi va vujudga kelishi
4. Faoliyatning umumiy psixologik tavsifi
5. Motivatsiyani o'rganishga oid asosiy yondashishlar
6. Inson psixik taraqqiyotida muloqotning ahamiyati
7. Shaxs haqida tushuncha
8. Psixologiyada shaxsni o'rganish nazariyalari
9. Emotsiyaning psixologik tavsifi
10. Shaxsning irodaviy xususiyatlari va ularning tuzilishi.
11. Diqqatning psixologik nazariyalari
12. O'quvchilar diqqatini rivojlantirish
13. Sezgilar haqida umumiy tushuncha.
14. Idrokning tasnifi va turlari.
15. Xotirani o'qish faoliyatida rivojlantirish.
16. Xotiraning individual psixologik farqlari.
17. Tizimli o'qitish jarayonida bola tafakkurining rivojlanishi
18. Shaxsning individual xususiyatlari
19. Temperamentning psixologik tavsifi
20. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari
21. Qobiliyatlarning rivojlanishi.

22. Faoliyat turlari.
23. O'quv materialini o'zlashtirishda qiziqishning ahamiyati.
24. O'smirlar muloqotining psixologik xususiyatlari.
25. O'quvchilarda iroda sifatlarini tarbiyalash yo'llari.
26. Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi.
27. O'spirinlarning kasbga tayyorgarligi muammosi.
28. Ta'limning psixologik asoslari
29. Tarbiyaning psixologik mexanizmlari.
30. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar.

II bo'lim. Pedagogika

1. O'zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risda"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati mazmuni asosiy tamoyillari.
3. Ta'lim tizimi va turlari.
4. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
5. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
6. Didaktika-pedagogik ta`lim nazariyasi. Ta`lim nazariyasi (didaktika)-pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

✓ psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi, psixologiyaning sohalari.psixika tirik mavjudotning obyektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi, psixika va ong munosabati, sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, irodaviy harakatlar va uni boshqari, shaxs shakllanishiga ta'sir yetuvchi omillar; muloqotning inson filogenetik va ontogenetik rivojlanishidagi ahamiyati, qobiliyat va layoqatning sifat va mikdor xarakteristikasi, qobiliyatlar tuzilishi, turlari, talantning paydo bo'lishi va tuzilishi, qobiliyat borasidagi nazariyalar hamda O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli; ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, birligi, differensiatsiyasi, yagona pedagogik jarayon; ta'lim nazariyasi(didaktika)ning asosiy komponentlari: konsepsiyalari, paradigmalari; ta'lim prinsiplari; ta'lim metodlari, texnologiyalari; ta'lim turlari va bosqichlari; tarbiya nazariyasining mohiyati; tarbiyaning mazmuni, prinsiplari; tarbiyada muhit (sotsium), ruhiyat (psixologiya); tarbiya metodlari va texnologiyalari; tarbiya turlari; jamoada, olladagi tarbiya hamda o'z-o'zini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari; O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi; ta'limni boshqarish shakllari; shaxsga ta'lim va tarbiya berish g'oyasining paydo bo'lishi; ta'lim va tarbiya to'g'risida

CamScanner yordamida skanerlangan

	Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari; jahon pedagogik jarayoni; O'zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini; pedagogik fikr tarixida mahorat masalalari haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi;** ✓ talaba psixologiya fanining tarixi, psixika va ong, psixologik metodlar, individ, irsiyat va muhit, shaxs, muloqot, faoliyat, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, shaxsning individual xususiyatlari yuzasidan tushuncha, tasavvurga yega bo'lish bilan birga, psixik rivojlanishga ta'lim-tarbiya jarayonlarining ta'siri yuzasidan olingan bilimlarni amaliy faoliyatga tadbiq etishni hamda ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish; o'z pedagogik faoliyatini rejalashtirish; ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llash; o'quvchini rag'batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste'dodi, iqtidorini rivojga chiqarish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish; o'quvchilar bilimini baholash; ota-onalar, jamoa, o'quvchilar bilan yakka va guruh bo'lib ishlash; o'quvchilar guruhlarini boshqarish; tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish; ta'lim va tarbiya jarayonida talab qilingan irodani namoyish qilish, sabr-toqat, qat'iyat, kayfiyatni o'zgartira olish, javobgarlikni his qilish; o'z mehnatini rasmiy va ijodiy tashkil eta olish: vaqtdan unumli foydalanish; o'z mahoratini tinmay oshirib borish; ilg'or tajribalarni o'z faoliyatiga singdirish **ko'nikmalariga ega bo'lishi;** ✓ shaxs (o'quvchi)ning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi metod va texnologiyalar, bilish jarayonlari va individual xususiyatlarning diagnostikasi va korreksiyasi, pedagogik jarayoni boshqarish, o'quv eksperimentlar o'tkazish, shaxs (o'quvchi) psixikasining o'ziga hos xususiyatlarini kuzatish, o'quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo'llay olish, psixologik ma'rifiy ishlarni tashkil etish hamda ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligini tadbiq etish; ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslarini singdira olish; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi tushunish; davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligini tushuntira bilish; ta'lim dasturlariga metodik jixatdan yondasha olish; o'quvchilar ongiga ta'lim olish majburiyligi, kasb-hunar tanlash ixtiyoriyligini singdira bilish; yoshlarni bilimli bo'lishiga va ulardagi iste'dodni rag'batlantira olish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirib olib borish **malakasiga ega bo'lishi kerak;**
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • krassvordlar • test
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil

	mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p. 2. Schiffman H.R. Sensation and Perception: An Integrated Approach. 5th Edition. – John Wiley & Sons, 2001. – 608 p. 3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2010. 4. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: 2014, 480 b. 5. R.A.Mavlanova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2018, – 528 bet 6. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Sanostandart" nashriyoti, 2017. 7. R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidova, K.Matnazarova. Pedagogika (Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti) darslik. – T., 2013. 8. A.Musurmanova, X.Ibragimov, OJamoldinova, K.Risqulova, S.Yo'ldosheva, A.Jumayev, F.Babashev, P.Isamova, S.Sharipova, G'.Salohiddinova, K.Todjibayeva. Umumiy pedagogika. I qism. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. **Qo'shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi 2017-yil 16-yanvar №11. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016. 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017. 4. G'oziyev E.G'. Psixologiya. –T., O'zMU «Universitet», 2003 y. 5. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya T.: 2008 y. 6. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: 2009 y. 7. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya.-T; "O'qituvchi", 2010 y. 8. Хасанбоев Ж., Туракулов Х., Педагогика фанидан изохли луғат. – Т.: Фан ва технология 2008. 9. Kaldo'bekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – T., 2013. 10. Niyozov G'., AxmedovaM. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011. **Internet resurslari** 11. http://azps.ru/tests/ 12. http://psihologpew.com/cont.html 13. http://www.psyportal.info/psygage/test 14. http://psylist.net/praktikum/ 15. http://www.psychology.ru/tests/

CamScanner yordamida skanerlangan

	16. http://www.psycological.ru
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali kengashining 2022-yil 5-sentabrdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** G.A.Xalbayeva – SamDUKF, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport" kafedrasi dotsenti v.b., psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori I.X. Komolova – SamDUKF, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport" kafedrasi o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** Sh.N.Mustafoyev - SamDUKF, "Maktabgacha ta'lim va pedagogika" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori, DSc (ichki)

CamScanner yordamida skanerlangan